

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA VILOYAT HOKIMLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI



**DAVLAT TILI O'QITISHNING  
DOLZARB MASALALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI

**TO'PLAMI**

**FARG'ONA – 2020**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA VILOYAT HOKIMLIGI  
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI**

**DAVLAT TILI O‘QITISHNING  
DOLZARB MASALALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR  
XALQARO ILMIV-AMALIV ANJUMAN MATERIALLARI  
TO‘PLAMI**



**FARG‘ONA – 2020**

социокультурными, психологическими и др.), т.е. текст, взятый в событийном аспекте. Понятно, что реальный процесс общения вовсе не строится вокруг одной темы: в реальном речевом акте можно наблюдать дополнения, изменения, частые переходы от одной темы к другой, выход за пределы обсуждаемой темы и т.д., что, конечно, мешает сохранению контакта.

Вузовская практика показывает, что вся система обучения русскому языку как иностранному традиционно делает основной упор на изучение структуры языка, упуская при этом важное положение - полноценное общение возможно только при умелом комбинировании вербальных и невербальных средств коммуникации. В связи с этим уместно в данном случае высказывание Ю.Д.Дешериева, главной функцией языка является «коммуникативная функция (функция общения)», которая предполагает «...знание всех сторон языка — его структуры, устройства («языка») и его функционирования («в речи») [3, 35]. Разумеется, здесь должна «работать» система, что является одной из особенностей речевого общения, где закономерности языка представлены только в процессах функционирования. Другая особенность заключается в ряде экстралингвистических характеристик, обеспечивающих возможность самой коммуникации.

Итак, анализ современного состояния проблемы, подходы к её решению, обзор научной литературы по данному вопросу позволил прийти к следующему выводу: общение предполагает гибкое варьирование всех языковых законов с учетом условий коммуникации, умелое сочетание единиц языка с паралингвистическими средствами, что даёт возможность раскрытию особенностей речевых актов как основных единиц процесса общения и их рассмотрению в плане совершенствования самого процесса общения.

#### **Список литературы:**

1. Леонтьев А.А. Лингвистическое моделирование речевой деятельности// Основы теории речевой деятельности. - М.: Наука, 1974. - С. 36-63.
2. Гельдиева А.Ч. Национальная культура и личность. – Ташкент: Укитувчи, 1993. – 104 с.
3. Дешериев Ю.Д. Вопросы терминологии. - Москва, 1961.
4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвострановедение. – Москва: Просвещение, 2000.

#### **NASIMIY VA NAVOIY IJODIDA ME'ROJ TALQINI**

**Z.Amonova,**

*o'zbek adabiyoti kafedراسи dotsenti, f.f.n., BuxDU*

Me'roj Sharq mumtoz adabiyotida ko'p talqin etilgan masalalardan biri bo'lib, arabcha "yuqoriga, ko'kka ko'tarilish" degan ma'noni bildiradi. Me'roj tushunchasi adabiyotimizga Qur'oni Karim va Hadisi Sharifdan o'tgan. Masalan, "Al-Isro" surasining dastlabki oyatida aytiladiki, "(Olloh) bir kecha o'z bandasi (Muhammad)ni – unga oyat-mo'jizalarimizdan ko'rsatish uchun (Makkadagi) Masjid Al- Haromdan (Quddusdagi) Biz atrofini barakotli qilib qo'ygan Masjid Al- Aqsoga sayr qildirgan

(barcha aybu nuqsonlardan) pok zotdir...”[7, 282]. Qur’oni Karimni o‘zbek tiliga tarjima qilgan Alouddin Mansur yuqoridagi oyatni shunday sharhlaydi: “Bu – me’roj, ya’ni Ollah huzuriga ko‘tarilish qissasi bo‘lib, u payg‘ambar alayhissalom Madinaga hijrat qilishlaridan bir yil ilgari voqe bo‘lgandir.”

Me’roj voqeasi “Sahihul Buxoriy” va “Sahihul Muslim” kitoblarida ham batafsil bayon etilgan. Anas ibn Molikdan rivoyat qilinishicha, Rasululloh me’roj voqeasini shunday bayon etganlar: “Menga eshakdan kattaroq, xachirdan kichikroq qadami ildam bir ulov keltirildi. Uni minib Baytul maqdisga bordim. Ulovni payg‘ambarlarning ulovlari turadigan joyga bog‘lab, masjidida ikki rakat namoz o‘qib chiqdim... Shundan keyin osmonga ko‘tarildik...” [8, 65.]

Sharq adabiyotida me’roj va unga bag‘ishlangan me’rojnoma ko‘plab yaratildi. Jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida ham Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, So‘fi Olloyor kabi shoirlar ijodida me’roj tasviriga bag‘ishlangan asarlar uchraydi. Me’roj talqinini deyarli barcha shoirlarning ijodida ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, ozar adabiyotining yirik darg‘alaridan hisoblanmish Imodiddin Nasimiy ijodida me’roj bilan bog‘liq she‘rlar mavjud:

O‘shal me’roj tuni qavsayn ishi shaqq ayladi oyni,

Bu sirdan bo‘lsa kim g‘ofil hiloling qadrini bilmas [5, 35].

Ollah taollo payg‘ambarlarga insonlarni haq dinga va ezgulikka da’vat etishlarida o‘zlarini Ollahning rasuli ekanliklarini isbotlash uchun qator mo‘jizalar ato etgan. Payg‘ambarlar mo‘jiza ko‘rsata olganidek, valiylar karomat namoyon etgan. Karomat va mo‘jiza bir-biriga bog‘liq bo‘lsa-da, mo‘jizaning mavqeyi baland hisoblanadi. Bu borada N.Komilov o‘z mulohazalarini bayon etgan: “Aslini olganda karomatu mukoshafa ham mo‘jizaga kiradi. Lekin mo‘jizaning qadri baland va ma’nosi teranroq” [3, 63]. Har bir payg‘ambar muayyan mo‘jiza ko‘rsata olgan. Ya’ni Odam (a.s.)dan Muhammad (s.a.v) zamonlari kelgunga qadar o‘tgan barcha payg‘ambarlarning Ollah bergan mo‘jizalari bor. Ammo Ulug‘ payg‘ambarimizning mo‘jizalari boshqalarga qaraganda ko‘proqdir: “Ulug‘ allomalardan ba’zilari Qur’ondan boshqa Rasulullohning mo‘jizalari uch mingdan ortiqroq deydilar” [6, 507]. Nasimiy talmeh san’ati imkoniyatidan unumli foydalanib, yuqoridagi baytda Muhammad (s.a.v.)mo‘jizalaridan biri – oyni ikkiga bo‘lish hodisasiga ishora qiladi. Payg‘ambarimizning Qur’ondan boshqa ko‘rsatgan mo‘jizalari orasidagi eng ulug‘rog‘i “Oy yorilishi” mo‘jizasidir. Mazkur mo‘jiza tafsilotlari Qur’oni Karimda va bir qancha manbalarda zikr etilgan. “Quraysh raislaridan Valid ibn Mug‘iyra, Abu Jahl, Os ibn Void kabi kishilar bir to‘p bo‘lib Rasulullohning oldilariga kelishdi. So‘ngra aytdilarkim:

–Ey Muhammad, agar sen biz so‘ragan mo‘jizani ko‘rsatur bo‘lsang, u chog‘da senga iymon kelturgaymiz. Qani, sen Alloh yuborgan payg‘ambar ekansan, shu ustimizda turgan oyga ishorat qil, u ikkiga bo‘linsin, – dedilar. Ular shu talabni qo‘ygach, Rasululloh (s.a.v) oyga barmoq ko‘tarib ishorat qildilar ersa, Alloh amri bilan ikkiga bo‘lindi ” [6,517].

Nasimiy baytning ikkinchi misrasida “Bu sirdan bo‘lsa kim g‘ofil hiloling qadrini bilmas” deydi. Zero, mazkur mo‘jiza Rasulullohning tom ma‘nodagi Ollohning payg‘ambari ekanliklarini yana bir karra namoyon etib tursa-da, g‘ofil bandalar buni anglamadilar. Bu borada “Tarixi Muhammadiy”da shunday deyiladi: “... Shundog‘ ulug‘ mo‘jizani ko‘rib tursalar ham yana iymon keltirishmadi. –Muhammad bizni sehr qildi, ko‘z boyladi, –dedilar... Bu bilan ham tavfiq topmadilar. Ammo mo‘minlarning iymonlari yana ham ziyoda bo‘ldi. Baxtsiz kishilarga ersa mundoq ulug‘ ne‘matdan zarrachalik ham bahra etmadi” [6, 517].

Demak, Nasimiy ushbu baytda Rasulullohning payg‘ambarlik maqomiga erishganlaridan so‘ng, u kishiga ham mo‘jiza ko‘rsatish qudrati, ham me‘rojga chiqish nasib bo‘lganligini ta’kidlagan.

Hazrat Navoiy g‘azallarida ham me‘roj bilan bog‘liq qator tafsilotlar berilgan:

Tilab ummat gunohin har nekim istab topib baxshish,  
Zihi soyil, zihi bozil, zihi rif‘at, zihi me‘roj [2, 68]

Navoiy mazkur baytda Muhammad (s.a.v)ning me‘rojga ko‘tarilishlari rif‘at (yuksaklik, buyuk martabalilik) ekanligini ta’kidlaydi. Chunki me‘rojga ko‘tarilish boshqa biror payg‘ambarga nasib qilmagan edi. Rasululloh me‘rojga ko‘tarilganlarida ummatlarining saodati uchun qayg‘uradilar. Payg‘ambarimizning Olloh taollodan ummatlarining farz amallarini bajarishida engilliklar tilaganliklari hadislarda va ko‘pgina diniy manbalarda zikr etilgan. Jumladan, quyidagi hadisda shunday deyiladi: “...men Musoning oldiga kelganimda u: “Robbing ummatingga nimalarni farz qildi?” deb so‘radi. Men ellik marta namoz o‘qishni buyurganini aytdim. “Izingga qaytib, Robbingdan ibodatni yengillatishini o‘tin, ummatingning bunga toqati yetmaydi. Men darrov izimga qaytib: “Ey Robbim, ummatimga yengillik ber”, deb yolvordim. U namozning besh mahalini qisqartirdi. Musoning yoniga kelib voqeani bayon etdim. U yuqoriga chiqib, yana yengillik so‘rashni maslahat berdi. Shu zaylda Robbim bilan Musoning o‘rtasida zir qatnadim. Toki parvardigorim : “Ey Muhammad, bir kecha-kunduzda besh mahal namozni farz qildim. Har bir namozga o‘n mahalning, besh mahalga ellik mahalning savobini beraman”, deganicha oldiga borib o‘tindim [8, 65-66]. Navoiy yuqoridagi baytda hazrati Rasulullohning yana bir muhim jihatlari e‘tibor qaratadi. Ya‘ni Muhammad (s.a.v) ummatlari va ularning gunohidan o‘tishi uchun Ollohga munajatlar qiladi. Chunki jamiki payg‘ambarlar orasida ummati uchun qayg‘urgan va hatto qiyomatga shafolat qiladigan ham ulug‘ rasulullohdir. Me‘rojga chiqqanlarida ummatlari uchun quyidagi afzalliklarga erishib qaytganlar: “... Kimki biror ezgulikni niyat qilib, keyin uni qilolmasa, bir yaxshilikning savobini mabodo ko‘ngliga tukkan ezgulikni ro‘yobga chiqarsa, o‘n yaxshilikning savobi beriladi. Kimki biror shumlikni ko‘zlasa-yu, amalga oshirmasa yomonlik yozilmaydi. Mabodo o‘ylagan yomonligini qilsa, bitta yomonlikning gunohi yoziladi, dedi Robbim” [8, 65-66]. Shuning uchun Navoiy Muhammad (s.a.v) haqida “Tilab ummat gunohin har nekim istab topib baxshish”, deydi. Me‘roj tavsifi, uning g‘animatligi, qolaversa, qisqa soniyada sodir bo‘lganligi she‘riyatda bot-bot zikr etiladi. Nasimiy ham me‘roj vaqti g‘animat dam ekanligi bilan bog‘liq mulohalarni navbatdagi baytda qayd etgan:

Bu dam ul damdir – Muhammad sayri me’roj ayladi,  
Kel, g’animat tut bu damnikim, bu dam ul dam emas [5, 34].

Shoir baytda so’z takrori (bu dam)dan o’rinli foydalanib, kitobxon diqqatini ayni masalaga qaratadi.

Navoiy ham me’rojni Rasulullohga nasib bo’lgan ulug’ voqea ekanligiga urg’u beradi:

Zihi boshing uza vash-shams zevaridin toj,  
Soching savodida tafsiri laylatul-me’roj[1, 82].

Shoir laylatul-me’roj (me’roj tuni)ni Muhammad (s.a.v) boshlaridagi toj sifatida e’tirof etadi. Navoiy bu tojni “vash-shams zevaridin” – quyosh bilan bezatilgan, deydi Ma’lumki, toj podshohlar boshini bezaydi. Rasululloh ham payg’ambarlarning podshohi, quyoshidirlar. “Axloq – fazilat osmonida Rasululloh go’yoki quyosh bo’lsalar, qolgan payg’ambarlar quyosh atrofidagi yulduzlar kabidur” [6, 599]. Navoiy ulug’ muddaosini tashbeh (sochning qoraligi tunning qoraligi), tanosub (soch, bosh) kabi badiiy san’atlar yordamida ifodalagan.

Nasimiy va Navoiyning me’roj talqiniga bag’ishlangan g’azallarida ulug’ payg’ambarning sifatlari, me’rojlari, mo’jizalari bilan bog’liq jihatlarga urg’u berilgan. Ayniqsa, Muhammad (s.a.v)dan boshqa payg’ambarlarga nasib bo’lmagan ME’ROJ tuni tasviri o’ziga xos ifodalangan. Ayni masala har ikkala ijodkorda diniy manbalar (Qur’oni Karim, Hadisi Sharif)ga suyangan holda bayon etilgan. Rasululloh madhi, buyukligi, qolgan payg’ambarlardan ustunligi ta’kidlangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. МАТ. II том. – Тошкент; Фан, 1987. – 620 бет.
2. Алишер Навоий. МАТ. VI том. – Тошкент, 1990. – 568 бет.
3. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1 - китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – 272 бет.
4. Меърожнома. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изох муаллифлари: Иброҳим Ҳаққул, С. Рафъиддин. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 92 бет.
5. Насимий. Озарбайжон тилидан Эргаш Очил таржимаси. Т., Мовароуннахр. 91 бет.
6. Соғуний Алихонтўра. Тарихи Муҳаммадий. – Тошкент: Мовароуннахр,

#### **INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI DINIY MAQOLLARNING SHAXS KAMOLOTIDAGI O‘RNI**

**Sh.Sultonova,**  
*filologiya fanlari buyicha falsafa doktori*  
*(PHD), dotsent, O‘zDJTU,*  
**Z.Bekniyozova,**  
*O‘zDJTU magstranti*

Til, falsafa va badiiy ijodning o’ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklarning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo’lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko’rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini

	варианте “Тарджумаи Таърихи Ямини” (перевод “летописи Ямини”)	
5.	Умарова Н. (ФарДУ) Фарғона ойконимлари – айрим қишлоқ номларига бир назар	351
6.	Рахматова О.К. (ФерПИ), Давлятова Г.Н. (ФерГУ) Речевые акты как основные единицы процесса культуры общения	353
7.	Атонова З.О. (ВухДУ) Nasimiy va Navoiy ijodida me’roj talqini	356
8.	Султонова Ш., Бекниёзова З.Р. (ЎзДЖТУ) Инглиз ва ўзбек тилларидаги диний мақолларнинг шахс камолотидаги ўрни	359
9.	Ҳамроева Ҳ., Муродова М. (Ўзбекистон давлат хореография академияси) Нутқ маданияти ва ёшлар маънавияти	362
10.	Жабборова А.Ж. (ЖизДУ) Фразеологик бирликларнинг лингвокультурологик тадқиқи	364
11.	Мелибоева М. (ҚДПИ) Ўғуз ҳокон афсонаси	367
12.	Тошболтаева Н., Тошболтаев С. (ФарДУ) Нутқ тараққиёти масалаларининг психологик талқини	369
13.	Джуроев М., Аҳмадалиев С. (ҚДПИ) Асл, икки хил таржима ва татаббуъ	370
14.	Мадумаров Р., Мадумарова М. (ФарПИ) Инсон камолотида мақтов ва танбехнинг ўрни	374
15.	Қўлдошев Н. (ФарДУ) Сўзлашув нутқи ва обценезм	377
16.	Хасанова Ҳ.Р. (Toshkent sh. Olmazor t. 278-maktab) O‘zbek xalq maqollarida nutqiy madaniyat va nutq odobi	380
17.	Jo‘rayeva D.R. (Buxoro sh. 35-maktab) Nutqning ayrim kommunikativ xususiyatlari haqida	383
18.	Абдупаттоева О. (Бувайда т. 1 умумий ўрта таълим мактаби) Катта ёшдаги кишилар нутқида сўзнинг белгилик ва семантик табиатининг намоён бўлиши	385
19.	Қурбонова М. (ФарДУ) Арабча сўзларнинг XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари ўзбек тили лексикасидаги ўрни	387
20.	Нишанов Я.И., Алимов Т.Э. (ФерГУ) Узбекский язык и устойчивое развитие: проблемы и перспективы	389
21.	Усманова Н. А., Шанигматова Ш.Т. (ФерГУ) О введении дисциплины “Риторика” в вузовском обучении	393
21.	Нишанов Я.И., Утанова Т.Г. (ФерГУ) Взаимоотношение узбекского и русского языков как проблема взаимоотношения языка, общества и культуры	396
22.	Тўхтабоева М. Боту шеъриятидаги такрорий шаклларнинг лисоний ва поетик хусусиятлари	399
23.	Ахророва З. (ФарДУ) Ўзбек тилида ўхшатишларнинг этнолингвистик таҳлили	404
24.	Маҳмудова З.Н. (FarDU) Nutqning yoshga ko‘ra xoslanishi	406